

G'ofurova Sarvara Madaminjonovna
Andijan davlat chet tillari instituti o'qituvchisi
E-mail: shodyona2020@mail.ru Tel: +998937847986

UDK: 809

TILSHUNOSLIKDA OLAMNING KONSEPTUAL VA LISONIY MANZARASI TALQINI

Annotatsiya: Mazkur maqolada tilshunoslikda olamning konseptual va lisoniy manzarasi talqini, hamda ularning o'xshashlik va farqli tomonlari xususida fikr yuritilgan. Tilshunos olimlarning qarashlari tahlil qilingan. "Maqsad" konseptual leksemalarni qo'llanilishi misollar orqali yoritilgan.

Kalit so'zlar: konsept, tilshunoslik, til, lisoniy, olam manzarasi, lingvomadaniyat, konseptosfera, tasavvur, maqsad.

Гофурова Сарвара Мадаминжоновна
Преподаватель Андижанского государственного
института иностранных языков
E-mail: shodyona2020@mail.ru Tel: +998937847986

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ КОНЦЕПТУАЛЬНОГО И ЛИНГВИСТИЧЕСКОГО ЯЗЫКОВЫХ КАРТИН МИРА В ЛИНГВИСТИКЕ

Аннотация: В данной статье рассматривается интерпретация концептуального и языковой картин мира в лингвистике, а также их сходства и различия. Проанализированы взгляды выдающихся лингвистов в этой области. Употребление концептуальной лексемы «Цель» поясняется приведением большого количества примеров.

Ключевые слова: концепт, языкознание, язык, лингвистика, мировоззрение, языковая культура, концептосфера, воображение, цель.

Gofurova Sarvara Madaminjonovna
Teacher of Andijan State Institute of Foreign Languages
E-mail: shodyona2020@mail.ru Tel: +998937847986

INTERPRETATION OF CONCEPTUAL AND LINGUISTIC LANDSCAPE IN LINGUISTICS

Abstract: *This article discusses the interpretation of the conceptual and linguistic landscape of the world in linguistics, as well as their similarities and differences. The views of linguists are analyzed. The concept of "purpose" is illuminated through examples of the usage of conceptual lexemes.*

Keywords: *concept, linguistics, language, linguistic, world view, linguoculture, concept sphere, perception, purpose.*

KIRISH

So‘nggi yillarda o‘zbek tilshunosligida olib borilayotgan tadqiqotlar tilni aloqa vositasi sifatida emas, balki dunyoni tushunish, anglash va uni kelajak avlodlarga yetkazish vositasi sifatida o‘rganishga qaratilgan. Bu jarayonda tilni uning egasi bilan birga o‘rganish hamda til va tafakkur o‘rtasidagi munosabatlarni chuqurroq tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Tafakkur va til, ongning alohida, ammo bir-biri bilan chambarchas bog‘liq ikki jihati sifatida tan olinadi.

Tilshunoslikda olamning konseptual va lisoniy manzarasi, asosan, til va fikr o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganadi. Konseptual manzara — bu insonlarning olamni, atrof-muhitni va o‘zlarini qanday tushunishi va tasavvur qilishi bilan bog‘liq bo‘lgan tushuncha. Ular o‘z bilimlari, tajribalari, madaniyati va hissiyotlari asosida shakllanadi [1].

Konseptual manzara kognitiv jarayonlar (tushunish, xotira, fikrlash) bilan bog‘liqdir. Insonlar olamni qanday anglaydi va qanday fikrlar hosil qiladi — bu kognitiv jarayonlarga bog‘liq. Konseptual manzara til bilan bog‘liq. Tushunchalar va fikrlar til orqali ifodalanadi, shuning uchun tilning strukturalari va leksikasi konseptual manzarani shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Konseptual manzara vaqt o‘tishi bilan o‘zgarishi mumkin. Yangi bilimlar, tajribalar yoki madaniy o‘zgarishlar insonlarning olamni tushunish tarzini yangilashi mumkin.

Lisoniy manzara — bu til va nutq orqali ifodalangan tushunchalar, tasavvurlar va hissiyotlarning to‘plami. U insonlarning tilni qanday ishlatishi, o‘zaro

muloqotda qanday ma'lumotlarni uzatishi va dunyoni qanday anglashiga bog'liq [2].

Lisoniy manzara tushunchalarning va ularning ma'nolarining o'zaro bog'liqligini o'z ichiga oladi. Har bir so'z yoki ibora ma'lum bir tushuncha yoki tasavvur bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Tilning grammatikasi, leksikasi va sintaksisi lisoniy manzarani shakllantiradi. Insonlar tilni qanday tuzishlari, qaysi so'zlarni tanlashlari va qanday jummalarni qurishlari lisoniy manzaraga ta'sir ko'rsatadi [3].

Lisoniy manzara kontekstga bog'liqdir. Nutqning qayerda, kim bilan va qanday sharoitda sodir bo'lishi uning ma'nosini o'zgartirishi mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

“Konsept” so'zi lotincha “conceptus” (tushunilgan) so'zidan kelib chiqadi. Bu so'z “concipere” (tushunish, o'z ichiga olish) fe'lidan olingan. Bu kontekstda konseptlar, insonning dunyoqarashini va bilimini shakllantiruvchi elementlar sifatida qaraladi.

Kontsept tilshunos olimlarning unga lingvokulturologik yoki kognitiv yondashuvlari paydo bo'lishidan oldin mavjud bo'lib, bu so'z o'zbek, rus yoki boshqa tillarga Evropa tillaridan, jumladan nemis tilida “konzept”, ingliz va fransuz tillaridan “concept”, hamda lotin tilidagi “conceptus” – “tushuncha” ma'nosi ostida o'zlashtirilgan. Agar ushbu so'zning turli xil lug'atlarda ifodalangan ma'nosiga e'tibor qaratsak, leksik tizimida shu ma'noni quvvatlovchi bir qator xosilalarini ham ko'rishimiz mumkin: ingliz tilida-concept, conceptual, conceptualise, conception va h.k.; rus tilida -kontseptsiya, kontseptualizatsiya, kontseptologizatsiya, kontseptualizm, kontseptualist va h.k; o'zbek tilida-kontsept, kontseptsiya, kontseptual va h.k.

F.Gilles va T.Mark "Conceptual Blending" nazariyasini ishlab chiqdilar. Ular kontseptual manzara jarayonini ikki yoki undan ortiq konseptni birlashtirish orqali yangi tushunchalarni yaratish jarayoni sifatida ko'radilar. Bu jarayon insonga murakkab fikrlarni oddiy qilib ifodalash imkonini beradi [1].

Ronald Langacker “Cognitive Grammar” nazariyasini ishlab chiqqan. U tilni kognitiv jarayon sifatida ko‘rib, tilning strukturalarini inson fikrining asosiy mexanizmlari bilan bog‘laydi va konseptual manzarani tilning asosiy qismlaridan biri deb hisoblaydi [2].

Raymond Gibbs konseptual metaforalarning til va fikrga ta‘sirini o‘rganib, konseptlarning qanday qilib muloqotda ishlatilishini ko‘rsatib bergan.

Shu o‘rinda, Sh.Safarovning “tabiiyki, barcha yo‘nalishdagi lingvistik tadqiqotlarning o‘rganish ob‘ekti yagona – til tizimi yoki, aniqrog‘i, lisoniy faoliyat va uning mahsuli” fikri asosli bo‘la oladi. Til – nafaqat muloqot quroli, balki fikr va g‘oyani shakllantiruvchi hamda uni ifodalovchi quroldir. Kontsept esa ong birligi bo‘lsada, uning asosida tushuncha, obraz va albatta lisoniy ma‘no yotadi [3].

Bizning fikrimizcha barcha narsalar borliqdan tafakkur orqali tilga
yo‘naladi va til uni shartli belgi va tovush qobig‘i yordamida ifodalaydi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Dunyo haqidagi har bir yangi tushuncha har bir individ tarafidan u ilgari ega bo‘lgan axborot va tushunchalar zahirida yoki ular yordamida shakllantiriladi. Shu tariqa shakllangan dunyo haqidagi tasavvur va tushunchalar tizimi insonda shakllangan dunyo haqidagi konseptual tizimidir, u statik tushunchalarga asoslangan

noverbal tasavvurdir. Bu tushunchalar tizimini til birliklari orqali ifodalashgacha bo‘lgan bosqichini tashkil etadi. Bu bosqichda inson hissiy bilish va qabul qilish orqali ob‘yektiv borliqdagi narsalar bilan tanishadi [4].

Yangi bilim strukturasi – konseptning paydo bo‘lishi avvalgi konseptlar negizida kechadi. Bu insonning konseptual tizimida mavjud bo‘lgan bilimlar lisoniy belgi ko‘rinishini olganlaridan so‘ng til tizimida yangi ma‘nolarni anglatuvchi boshqa (ikkilamchi) nominativ birliklarni yaratish ehtiyoji va

imkoniyatining tug'ilishidan darak beradi. Xuddi shu yo'sindagi bilish faoliyatida yaratiladigan yangi konseptlar, ular lisoniy belgi ko'rinishini olganlaridan so'ng, konseptual tizimning ajralmas qismiga aylanadilar hamda uning istiqboldagi rivoji uchun asos yaratadilar. Masalan, "Purpose /maqsad" konsepti istak, xohish, tilak, umid, ilinj, muddao kabi ikkilamchi nominativ ma'nolarga ega:

– My **aim** is to complete my education. -Mening **maqsadim** ta'limimni tamomlash.

–Her **ambition** is to become a successful entrepreneur. -Uning **intilishi** muvaffaqiyatli tadbirkor bo'lish."

–His **aspiration** is to inspire others through his art. -Uning **umidi** san'ati orqali boshqalarga ilhom berish."

–I have a strong **desire** to travel the world. -Men butun dunyo bo'ylab sayohat qilishni juda **istayman**.

–His **intent** was to help those in need. -Uning **niyati** muhtojlarga yordam berish edi."

–Our **objective** is to increase sales by 20% this year. Bizning **maqsadimiz** bu yil savdoni 20% oshirish.

–**The purpose** of this meeting is to discuss future strategies. - Ushbu yig'ilishning **maqsadi** kelajak strategiyalarini muhokama qilish.

Yuqoridagi gaplarda aim, ambition, aspiration, desire, intent, objective, purpose, konseptual leksemalar yaratilganiga guvoh bo'lamiz.

Tadqiqotimizda konseptual tahlil obyekti sifatida "maqsad" konseptini tanlagan ekanmiz, "olamning lisoniy manzarasi"da odamning ichki tuyg'usini tasvirlash usuli ishlab chiqilganligi, bunday tahlil usuli insonning ma'naviy turmushini aks ettiruvchi ("hoxish", "istak", "niyat") alohida konseptlar tahlilidan hosil bo'lishi, yoki boshqa semantik va semiotik kategoriyalar (uzoq-yaqin, old-orqa, uzun-qisqa) tahlili orqali shakllantirilishi mumkinligini yana bir bor ta'kidlab o'tish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Olamning konseptual manzarasi konseptlardan tashkil topgan muayyan obrazlar majmui sifatida olamning lisoniy manzarasidan kengroq va boyroq,

chunki olam haqidagi ma'lumotlar inson ongida nafaqat verbal balki noverbal ravishda ham kodlanadi. Shu sabab olamning konseptual manzarasi olamning lisoniy manzarasiga nisbatan murakkabroq, chunki milliy til konseptosfera ichida yashaydi.

XULOSA

Lisoniy manzara insonlarning til orqali olamni qanday anglashini va ifodalashini aks ettiradi, bu esa muloqot jarayonida muhim ahamiyatga ega. Olamning lisoniy manzarasi — bu inson faoliyatining barcha turlarining natijasi sifatida paydo bo'lgan global tasvir. U inson ongida tashqi olam bilan o'zaro aloqalar asosida shakllanadi. Shunday qilib, olamning lisoniy manzarasini inson ongidagi dunyo tasviri sifatida tushunish mumkin. Bu tasvir individning shaxsiy tajribasi va lisoniy faoliyati natijasida yaratiladi va lisoniy vositalar orqali ifodalanadi.

Inson tafakkurida shakllangan olamning konseptual manzarasi juda murakkab tuzilmadir. Konseptual manzara insonlarning fikrlash uslubi va dunyoqarashini shakllantiruvchi muhim omil bo'lib, ularni yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi. Kontsept masalasi juda ko'p tahlilga tortilganligi bois, uning tadqiqotchilari doirasi ulkandir. Kontseptga asosan uch doira kesimida qoraladi: kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya va psixologiya. Kontseptning voqealanishi, avvalo, individual tasavvurga tayanadi, so'ngra olamning lisoniy manzarasida ekstralingvistik bilimlar umumiylik darajasiga ko'tariladi.

Demak, olamning lisoniy manzarasi insondagi dunyoning konseptual manzarasining til birliklariga mazmunan va shaklan bog'liq qismigina, xolos.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

- 1.Fauconnier, Gilles. "Conceptual Blending" Case Western University, 2008. - p. 75.
- 2.Ronald Langacker "Cognitive Grammar" Oxford University Press, 14 February 2008 -p. 148
- 3.Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. –Жиззах: Сангзор, 2006. – 91 б.

4. Тарасевич Н.А. Лингвокультурный аспект формирования языковой личности средствами иностранного языка// Лингвокультурное образование в системе вузовской подготовки специалиста. Том 1, Номер 1(9), 2016. -С. 252-258 > <https://elibrary.ru/item.asp?id=26086431> (November, 2018).